

1 - SHO'BA. YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O'RNI

BO'LAJAK VETERINAR MUTAXASSISLARIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Narziyeva N.N.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida bo'lg'usi veterinari mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish holati, talabalarda tadqiqot faoliyati muammolarini rejalashtirish va yechish usullarini tanlash mezonlari, talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalari va ularning rivojlanish darajasining pedagogik-psixologik xususiyatlari va bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalari asosida mashg'ulotlar jarayonida shakllantirish, tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, faoliyat, malaka, kompetensiya, bo'lg'usi veterinari mutaxassislar, tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish.

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quv-texnik ta'minlash, oliy ta'lim uchun davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, o'qitishning ilg'or yondashuvlarini joriy etish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, iqtidorini barvaqt aniqlash hamda ularni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga bo'lg'usi veterinari mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini pedagogik imkoniyatlariga ko'ra takomillashtirish zarurati har qachongidan ham muhim vazifalardan biriga aylandi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "47-maqсад: 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash "Oliy ta'lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish, 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini tanlash, salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash", 52-maqсад: Global innovatsion indeksda O'zbekiston respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish, global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish" kabi maqsadlar belgilangan. Bu borada bo'lg'usi veterinari mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalari shakllanganligini

aniqlash mezonlari, pedagogik-psixologik optimal prinsiplari, integrallashgan metodik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib, oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatini oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolari R.G'.Safarova[7], N.Ataqulova[2]lar, talabalarning fanlarga xos tadqiqot tajribalarini shakllantirish va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari Sh.Hasanova [8], N.Narziyeva [4], S.I.Osipova[5], B.X.Raximov[6]lar tomonidan o'rganilgan.

“Kompetentlilik” termini pedagogikaga psixologiyadagi ilmiy-tadqiqotlar natijasida kirib kelgan. Psixologiya fanida kompetentlilik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda shaxsning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” [10] ni anglatadi.

Shuningdek, tayanch kompetensiyalar bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Talabalarda rivojlanadigan kompetensiyalar shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatish ta'limga yangicha yondashuvni nazarda tutadi. Talabalardagi kompetensiyalarda kutilmagan noaniq, muammoli, yangi vaziyatlarga duch kelinganda olingan bilim, kompetensiya, malakalardan foydalana olishga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun har bir predmetni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlariga muvofiq ravishda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi.

Pedagog olimlarimizning tadqiqotlarida kasbga xos kompetentlilikning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Jumladan, N.A.Muslimov o'zining tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlilikni oltita sifat ko'rinishida keltirib o'tganlar:

1) Motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi);

2) Intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, kompetensiya va malakalarni shakllantirishga intiladi);

3) Irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilish va tashabbuskorlik xislatlari);

4) Amaliy kompetensiyalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi kompetensiyalari);

5) Hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirilishi (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi);

6) O'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdoniylik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonch, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yuqoridagi ma'lumotlar oliy ta'lim faoliyati mazmuni hamda talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish jarayoniga ham o'zgartirishlar kiritish zarurligini ko'rsatmoqda. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki:

- talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini yaratish;

- fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarining rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi pedagogik va psixologik bilimlar asoslari borasidagi nazariy ma'lumotlarni tayanch kompetensiyalar asosida berilishiga erishish;

- talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti o'rtasida mustahkam integratsiyaning qaror topishi hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish kabilar.

Talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishda dialektik tafakkurni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Dialektika atamasi o'tmishda, asosan, uch ma'noda: birinchidan, bahs-munozara yuritish orqali suhbatdoshlarining fikridagi qarama-qarshiliklarni fosh etib, haqiqatga erishish quroli sifatida; ikkinchidan, falsafiy fikrlash qonun-qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan tafakkur shakli sifatida; uchinchidan, falsafa va boshqa fanlarda tadqiqot yuritish jarayonida narsa va hodisalarni har tomonlama hamda atroflicha bilish uchun qo'llaniladigan usul sifatida [9] ishlatilib kelingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta'limning muvaffaqiyati o'quv materiallarining mazmunigagina, ta'lim usullarigagina emas, balki u ko'p jihatdan talabaning qanday o'qiyotganligini bilishga, ya'ni talabaning yosh xususiyatlariga, aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq malakalarni o'zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini bilishga ham bog'liqdir.

Talabalarning kompetensiyalariga oid faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- intiluvchanligi;
- yaratuvchanlik qobiliyatiga ega ekanligi;
- mantiqiy fikrlash qobiliyatining ustunligi;
- izlanuvchanlik qobiliyatiga ega ekanligi;
- yangilikka moyilligi;
- analitik fikrlash qobiliyatining yuqoriligi;

- синтетик фикрлаш қобилиятининг юқорилиги;
- тадқиқотчилик қобилиятининг кучлилиги.

Талабаларнинг тадқиқотчилик ишларига оид фаолиятини шакллантиришнинг о‘зига хос хусусиятларига бундан кейин ҳам қо‘шиш мумкин. Чунки улар давр о‘тиши билан ривожланиб борди.

Хулоса (Conclusion). Тадқиқотда хорижий ва республикамиз олий та’лим муассасаларида талабаларнинг тадқиқот фаолиятини шакллантириш ҳолати таҳлил етилди. Натиялар олий та’лим муассасалари талабаларига дастлаб дунёвий илмлар ҳақида ма’лумот, тushuncha ҳосил қилиш, дунёни о‘зи англаб yetish uchun шароит, имконият yaratish, so‘ngra ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Талабаларнинг тадқиқот ишларидagi faolligini oshirishda ularning faoliyati, ijtimoiy fikrini o‘rganish borasida tadqiqotlar o‘tkazish va shular natijasida bu sohada yangi yo‘nalishlarni belgilash lozim.

Талабаларни тадқиқот ишларига yo‘naltirishni faollashtirishga doir xorij va milliy tajribalarni o‘rganish va ularni muvofiqlashtirgan holda ommalashtirish zarur.

Фойдаланилган адабиётлар (References)

1. <https://lex.uz/docs/5841063>. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида.
2. Атакулова Н.А. Таълим жараёнида талабаларда илмий дунёкарашни шакллантириш. Монография. -Т.: 2016. -Б.11.
3. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дис.-Т.: 2007. –Б. 315.
4. Narziyeva N. Development of Education and Research Activity Profile Class Students on the Basis of Integrative and Personal Approach // Eastern European Scientific Journal (Germany). www.auris-verlag.de. DOI 10.12851/EESJ201703. ISSN:2199-7977. -P.105-108.
5. Осипова С.И. Развитие исследовательской компетентности одарённых детей. Электронный ресурс. – ГОУ ВПО. www.fkg.ru/conf/17.doc.
6. Рахимов Б.Х. Талаба-ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтириш асослари. Монография. Т.: Фан. 2007. -Б.11,152.
7. Сафарова Р.Ғ. Шахсни шакллантириш омиллари // Таълим тараққиёти Ж.. 2001. № 3-4. –Б.60-63.
8. Ҳасанова Ш. Биология дарсларида талабаларни тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш. // Халқ таълими Ж. 2015/6. –Б.35-36.
9. Шодиев Н.Ш. Талаба шахсига йўналтирилган ўқитиш технологиялари. Т: ТДИУ, 2004. –Б. 182.
10. Научная библиотека диссертаций и авторефератов disser Cat <http://www.dissercat.com/content/razvitie-issledovatel-skoi-kompetentnosti-starsheklassnikov-v-usloviyakh-profilnogo-obucheniya#ixzz4sXVDDvrC>.